



O‘ZBEKISTON UCHUN KUCHLI “AQL MARKAZLARI” ZARUR

Javokhir Egashov Inomjon o‘g‘li

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti tayanch doktoranti ergashevjavohirjon@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis O‘zbekiston uchun milliy “aql markazlari”ning strategik o‘rni va ahamiyati qanday ekanligi haqidagi savolga javob beriladi. Muallif dunyoning yetakchi davlatlari tajribasiga tayangan holda, tahliliy markazlar nafaqat ilmiy muassasa, balki davlat siyosatini asoslovchi, milliy manfaatlarni ilgari suruvchi va murakkab vaziyatlarda muqobil yechimlar taklif etuvchi muhim institut ekanini asoslab beradi. Tezisdan ushbu tuzilmalarning iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, ichki islohotlar samaradorligini oshirish, tashqi siyosatni ilmiy asoslash hamda xavfsizlikka oid muammolarni prognoz qilishdagi funksiyalari keng yoritilgan. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston davrida — xususan, 2017–2025-yillar oralig‘ida — tahliliy markazlarning tashkiliy tuzilmasi, faoliyat yo‘nalishlari va davlat boshqaruvidagi o‘rni sezilarli darajada o‘zgargani ko‘rsatib beriladi. Mazkur davrda ular oddiy maslahat beruvchi tuzilmadan strategik qarorlar ishlab chiqilishida bevosita ishtirok etuvchi professional institutlarga aylangani alohida ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Aql markazlari, think tanklar, Yangi O‘zbekiston, davlat boshqaruvi, strategik rejalashtirish, milliy manfaatlar, institutsional o‘zgarishlar, tahliliy faoliyat, kadrlar salohiyati, strategik dasturlar, xalqaro hamkorlik, integratsiya.

Biz yashayotgan davr tezlik bilan o‘zgarib bormoqda. Bu jarayon esa tabiiyki zamon zayliga moshlashuvni, dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashuvni hamda ma‘lum bir miqdorda muvozanat saqlashni ham talab etadi. Albatta, bir vaqtning o‘zida jahon bilan aloqa o‘rnatish hamda milliy manfaatlarni himoya qilgan holda muvozanat saqlash, iqtisodiy barqaror rivojlanish, mamlakat ichki va tashqi muammolarini bartaraf etish oson ish emas. Avvalo, buning uchun dunyo davlatlari tajribasini o‘rganish, ularni milliy mentalitetimizga mosligini aniqlash hamda bizga zararli jihatlarni bekor qilgan holda mamlakat manfaatlariga moslashtirib yangi konsepsiyalar, strategik dasturlar ishlab chiqish, ularning ilmiy-amaliy jihatlarni inobatga olish muhim. Bu jarayonlarda albatta “aql markazlari”ga ehtiyoj seziladi. So‘nggi yillarda yurtimiz ilmiy jamoatchiligi ko‘p murojaat qilayotgan bu turdagi institutlar O‘zbekiston uchun yangi bo‘lishi mumkin, ammo jahon tajribasiga qarasa, “aql markazlari” allaqachon qudratli davlatlarning eng muhim funktsiya bajaruvchi bo‘g‘iniga aylangan.

Yurtimizda bu kabi tahliliy tuzilmalar borasida ham bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, mahalliy tadqiqotchilardan biri Eldor Tulyakov “O‘zbekistonda “aql markazlari”ning davlat boshqaruvidagi ishtirokini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari” PhD dissertatsiyasini[2] yoqlagan va bu dissertatsiyada “aql markazlari”ning yurtimizda tashkil topishi, rivojlanishi, davlat siyosatiga ta‘sirini tadqiq etgan bo‘lsa, Jizzax Davlat Pedagogika Universitetida faoliyat yurituvchi siyosatshunos olim, siyosiy fanlar falsafa doktori(PhD), dotsent To‘rayev Abror Saloxiddinovich esa bu mavzuda bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirgan hamda hozirda yurtimizda aynan bu mavzu doirasida



ish olib borayotgan tadqiqotchilardan hisoblanadi. Uning muallifligida nashr etilgan “AQShda “aql markazlar”ning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari”[3] hamda “AQShda “aql markazlar”ning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari” deb nomlangan[4] maqolalarida “aql markazlari” faoliyati batafsil tahlil etilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mavzuyimizning asosiy qismiga to‘xtalsak, “aql markazlari” o‘zi nima va O‘zbekiston uchun zarurmi? Avvalo, shuni aytish kerakki, “aql markazlari” – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, diniy, ma’naviy jihatdan tahliliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, olingan tahlillar asosida esa tegishli strategiya va muammolar uchun yechim ishlab chiquvchi muhim tuzilmalar hisoblanadi. Bugungi kunda Yurtimizda bunday markazlarga ehtiyoj sezilmoqda va buni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham ta’kidlab o‘tgan[1]: “Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari”mizni shakllantirishni talab etmoqda. Afsuski, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta’sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur”. Shu jihatdan olib “aql markazlari”ning zarurligi masalasini quyidagicha izohlash mumkin: 2017-yildan boshlab O‘zbekistonda boshlangan keng ko‘lamli siyosiy va institutsional islohotlar jarayoni “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi bilan uyg‘un holda davlat boshqaruvi, strategik rejalashtirish va tahliliy faoliyat tizimini tubdan yangilashni taqozo etdi.

Yangi siyosiy tafakkur sharoitida “aql markazlari”ning roli oddiy maslahat beruvchi yoki tor doiradagi ilmiy institut maqomidan chiqib, davlat siyosatini shakllantirish, monitoring qilish va baholash jarayonining ajralmas institutiga aylandi. Bu transformatsiya bir vaqtning o‘zida institutsional va funksional takomillashuvni anglatadi: ya’ni tuzilma, maqom va boshqaruv mexanizmlarining yangilanishi bilan bir qatorda, vazifalar doirasining kengayishi va metodologik yondashuvlarning modernizatsiyasi ham yuz berdi. Avvalo, institutsional jihatdan 2017–2025-yillar oralig‘ida tahliliy markazlarning maqomi va vakolatlari aniqroq belgilandi.

Davlat strategiyalarini ishlab chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish, islohotlar samaradorligini monitoring qilish kabi funksiyalar tizimli ravishda “aql markazlari” zimmasiga yuklatildi. Bu jarayonda yurtimizda mavjud “aql markazlari”dan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Institut nafaqat mintaqaviy xavfsizlik va tashqi siyosat masalalarini tahlil qilish, balki ichki islohotlarning konseptual asoslarini ishlab chiqishda ham faol ishtirok eta boshladi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish hozirda har doimgidan ham muhim. Xalqaro miqyosda nizolarning kuchayishi, globallashtirish sharoitida mamlakatlarning o‘zaro bog‘liqligi, ichki muammolarni bartaraf etish hamda mamlakatni yanada yuksaltirish har doimgidan ham dolzarb hisoblanadi.

Bu borada albatta, hozirda yurtimizda mavjud “aql markazlari” tegishlicha faoliyat olib borishmoqda. Ammo, Prezidentimizning nutqlaridan ham ma’lumki, bu kabi tahlil markazlarini yanada kuchaytirish, ularga bo‘lgan e’tiborni oshirish zarur.



Hozirda bu borada mavjud eng katta muammolardan biri esa, shubhasiz, kadrlar masalasi. Yuksak saviyali, ilmiy, tahliliy fikrlashi kuchli bo'lgan kadrlargina mamlakatni kuchli "aql markazlari" bilan ta'minlay oladi.

Malakali kadrlarni tayyorlash uchun esa ta'lim tizimini rivojlantirish, "aql markazlari"da faoliyat yuritayotgan kadrlarni tajriba almashish maqsadida, dunyoda yetakchi tashkilotlarga yuborish hamda tahliliy jarayonlarni yanada kuchaytirish va bu borada ishtiyoqmand kadrlarni rag'batlantirib boorish zarur.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, "aql markazlari" mamlakatimiz kelajagi uchun muhim. Ularni yanada kuchaytirish, safini malakali kadrlar bilan to'ldirib boorish, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoev: Jamiyat Hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir//Шавкат Мирзиёев: Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир

2. Tulyakov E. "O'zbekistonda aql markazlarining davlat boshqaruvidagi ishtirokini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari". PhD dissertatsiyasi. JIDU huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi dsc.11/10.01.2024.yu.24.04 raqamli ilmiy kengashning yuridik fanlar falsafa doktori (phd) himoyalari o'tkazildi//JIDU huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.11/10.01.2024.yu.24.04 raqamli Ilmiy Kengashning yuridik fanlar falsafa doktori (PhD) himoyalari o'tkazildi - UWED

3. To'rayev A. The interpretation of the "Pax Americana" concept by neoconservative think tanks//Oriental Journal of History, Politics and Law. 2026. pp-376-384

4. Turayev A. AQShda "Aql markazlar"ning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari//Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti. 2026. pp-176-182